

HUQUQSHUNOSLIKDA NOTIQLIKNING AHAMIYATI

Qodirova Go'zal Qodir qizi

O'zMU "Yurisprudensiya: biznes huquqi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Saidov Shoxruxxon Muzaffarovich

Ilmiy rahbar:

O'zMU "Huquqiy fanlar" kafedrasi mudiri, yuridik
fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12205704>

Annotatsiya:

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarda yangicha dunyoqarashning shakllanishi va uning ifoda etilishida notiqlikning o'zni kuchayib bormoqda. Shu maqsadda bir qator soha talabalari, xususan huquqshunoslik yo'nalishi talabalarida notiqlik san'atining mavjud bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqshunos o'z faoliyatida inson va mamlakat taqdiriga daxl qilar ekan, u bilimlarga ega bo'lish bilan birgalikda savodli yoza bilishi, chiroyli gapirish va notiqlik san'atidan xabardor bo'lishi darkor. Maqolada xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasida notiqlik san'ati borasidagi faoliyat tadqiq etilgan hamda huquqshunoslar uchun notiqlik borasidagi dastlabki bilimlar sifatida bir qator tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Notiqlik, sud notiqligi, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim, tavsiyalar.

Har bir malakali mutaxassislar kuchli bilim va ravon nutq orqali ko'plab insonlar orasida hurmat qozongan va qiyin vaziyatlardan chiqib keta olganlar. Nutqning ravon bo'lishi, omma oldida hayajonlanmaslik va kerakli gapni ayta olish - muhtasar aytganda notiqlik inson uchun o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalardandir. Ayniqsa u huquqshunoslar faoliyatining ajralmas ko'nikmasi hisoblanadi. Notiqlikdan, xususan huquqiy notiqlikdan to'g'ri foydalanish qonunlarni muvaffaqiyatli talqin qilishda bahslashish yoki himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ishlatilishi fikrlashni ma'lum bir maqsadga yo'naltirish uchun aniq xabarlarini yetkazish strategiyalarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Biz xorijiy filmlarda advokatlarning sud jarayonlarida qanday nutq so'zlaganlarini ko'rib, "Men ham shunday himoyachi bo'lsam edi", deya havas bilan orzu qilamiz. Lekin huquqiy notiqlik uchun faqatgina istakning o'zi yetarli emas.

Huquqiy notiqlik - bu yuridik kasb bilan bog'liq protseduralar doirasida muloqotga tatbiq etiladigan diksiya va tana tili texnikasi to'plami. Uning maqsadi huquqiy jarayonda zarur bo'lgan dalillar va ma'lumotlarni aniq, to'g'ridan-to'g'ri va tabiiy ravishda ifoda etishdir. Ko'plab mutaxassislar ushbu vositalarni sudya

oldida o'z dalillarini qo'llab-quvvatlash uchun ishontiruvchi elementlar sifatida ishlatishadi. Yaxshi notiq bo'lish uchun ko'p narsani bilishning o'zi yetarli emas. Yaxshi notiq til, his-tuyg'ular, tana, mantiqiy fikrlashdan unumli foydalangan holda tinglovchilar oldida ommaviy nutqdan samarali foydalanishni ham bilishi kerak. Ommaviy nutq muloqotning eng muhim va qo'rquinchli shakllaridan biridir. Glossofobiya yoki nutq tashvishi - bu butun dunyo bo'ylab odamlarning eng keng tarqalgan qo'rquvi. Ommaviy nutqning muhimligi shundaki, u insonlar bilan muloqot qobiliyatini, kishining o'ziga ishonchini oshiradi, ishontirish va ta'sir qilish qobiliyatlarini yaxshilaydi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

“Moziyga qaytib ish ko'rmoq hayrlidir”, deganlaridek quyida notiqlikning tarixi haqida so'z yuritamiz.

Notiqlik Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim va Xitoyda asosan taraqqiy topgan desak yanglishmaymiz. Xitoy faylasufi Konfutsiy so'zlar olamni o'zgartiradigan harakatlarni amalga oshirish kuchiga ega ekanligiga ishongan. Yunon faylasufi Aristotel notiqlikni uch turga bo'lgan: siyosiy notiqlik, sud notiqligi, maqtov yoki ayblash nutqi. Qadimgi Rimning mashhur notiqalaridan biri Sitseron sud notiqligiga alohida to'xtalib, uning nazariyasini quyidagicha talqin etgan:

“1. Ayblash nutqi;

2. Himoya nutqi.

Sitseron sud notiqligining manbai va maqsadini quyidagicha tavsiflaydi:

-tabiiy iste'dod;

-nazariy bilim;

-amaliy mashqlar.

Sud notiqligining maqsadi:

-ishontirish;

-rohatlantirish;

-hayajonlantirish”.¹

Qadimgi Yunonistonda har bir fuqaro ijtimoiy hayotda, siyosatda muvaffaqiyat qozonishni istasa, albatta notiqlikni o'rganishi zarur edi. Avval boshida o'zlarini sofistlar deb atagan bir guruh o'qituvchilar notiqlikdan saboq bera boshlashgan. Keyinchalik Aristotel, Suqrot, Aflotunlar o'zlarining notiqlik ilmiga bag'ishlangan nazariyalarini ishlab chiqdilar. Chunonchi Aristotelning “Ritorika” asarini eshitmagan huquqshunos yoki notiq bo'lmasa kerak. Aristotel ma'ruzachining nutqi qay darajada o'ziga ishongan bo'lsa, tinglovchilar uning aytganlariga

¹ V.R.Topildiyev, B.R.Topildiyev, M.Y.Usmonova. Rim huquqi. – T., «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 57 bet.

ko'proq ishonishadi deb hisoblaydi. Shunday qilib notiqlikning eng asosiy ismlaridan biri bu ishontirishdir.

Bugungi kunda notiqlik ko'plab sohalarda mustahkam aloqalarni o'rnatish, ishontirish vositasiga aylandi. Avvallari omma oldida jonli tarzda nutq so'zlangan bo'lsa, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida minglab tinglovchilar oldida nutq so'zlash imkoni bor. Bu kabi imkoniyatlar, zamonaviy texnologiyalar, notiqlik bo'yicha o'quv qo'llanmalar, asarlar bo'lgani bilan, ko'pchilik insonlarda omma oldida nutq so'zlashdan qo'rqish hissi bor. Bu esa shaxsning muvaffaqiyatga erishishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy hissiyot sanaladi. Ayniqsa huquqshunoslar bu "illat"laridan tezroq voz kechishlari darkor. Chunki ular qo'lida insonlarning taqdiri yotadi. Shu sababli ham huquqshunoslik yo'nalishi talabalariga ta'limning ilk yillaridanoq notiqlik darslari o'tilishi ham bejiz emas. Biroq faqatgina darsning o'zi muvaffaqiyatli notiq bo'lish uchun yetarli emas. Umuman olganda o'z nutqining omma oldida go'zallashuviga erishishni istagan har qanday inson o'z nutqi ustida ko'proq ishlashi zarur bo'ladi. Buning uchun turli metodlardan foydalanish yoki notiqlik kurslariga yozilish mumkin. Bu ayniqsa chet el mamlakatlarida taraqqiy etgan. Masalan, samarali ommaviy nutqni rivojlantirish uchun klublar, Toastmasters International ma'ruzachilar klublari assotsiatsiyasi (ASC) yoki nutq to'garaklarini aytib o'tsak bo'ladi. Bundan tashqari Avstraliyada Rostrum deb ataladigan notiqlik tashkiloti bor bo'lib, butun mamlakat bo'ylab 100 dan ortiq klublariga ega hisoblanadi. Ushbu tashkilot insonlarga yaxshi notiq bo'lishlariga yordam beradi. Ko'plab dunyo mamlakatlarida ayollar uchun alohida notiqlik klublari ham faoliyat ko'rsatadi. Masalan Avstraliyada dastlab "Pingvin klubi" deb atalgan bugungi kunda "Gapirish oson", deya ataladigan klub mavjud bo'lib, u "ayollar tomonidan ayollar uchun yaratilgan"².

Bugungi kunda mamlakatimizda ham nutq madaniyati va notiqlik san'atini o'rgatishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida notiqlik san'ati kabi fanlar o'qitilmoqda, sohaga oid kitoblar, qo'llanmalar chop etilmoqda. Yapon, fransuz, nemis tillarida notiqlik san'ati bo'yicha tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Yaxshi notiq bo'lish nafaqat huquqshunoslikda balki barcha sohalarda kerak bo'ladigan ko'nikmadir. Xodimlarni boshqarish ham, bolalarga g'oyalarni singdirish ham, mamlakatni boshqarish ham notiqlikni talab qiladi. Yaxshi notiq bo'lish uchun avvalo muloqot qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu bizga

² Wikipedia. <https://en.wikipedia.org/>

aloqalarni shakllantirish, qarorlarga ta'sir qilish va o'zgarishlarni rag'batlantirish imkonini beradi.

Quyida huquqshunoslar uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalarni keltirib o'tmoqchimiz:

- doimo muhokama qilinadigan masala bo'yicha avvaldan tayyorgarlikka ega bo'ling. Bu zarur, chunki masala huquq va boshqa sohalarga bir vaqtning o'zida tegishli bo'lishi mumkin. Bunda esa siz albatta bu soha terminlari va mavjud muammoga oid bilimlardan xabardor bo'lishingiz kerak;
- muhokama qilinadigan masala yuzasidan faktlar bilan aniq va mantiqiy bahslashish uchun nutqingizni tayyorlang. Huquqiy masala va uning kelib chiqishi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, himoya qilinadigan har bir nuqtaning argumentatsiyasi tayyorlanishi kerak;
- tana tilini yaxshilang. Bu tinglovchilarni o'zingizga jalb etishingizda muhim sanaladi. Gapirayotganingizda o'zingizni noqulay his etmaslik uchun qulay kiyimda, qulay joyda bo'ling. Tanangizning turi qismlari qo'llar, bosh, oyoqlarni gapirayotgan gapingizga mos holatda harakatga keltiring. Noto'g'ri jestlardan foydalanmang;
- fikringizni imkon qadar qisqa satrlarda, aniq tushunchalarda ifodalang. Zero, "Sitseron ta'biri bilan aytganda qisqartirish bu notiqlikning ajoyib jozibası"³

Notiqlik bilan shug'ullanish kishida o'ziga ishonchni oshiradi. Tinglovchilar oldida nutq yoki taqdimot qilganingizda, siz hukm va rad etish qo'rquvini yengasiz. Nutqlarni tayyorlash va nutq so'zlashda siz o'zingizning mavzuingiz bo'yicha mahorat va uni samarali yetkazish qobiliyatiga ega bo'lasiz. Tanqidiy fikrlashingiz rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.R.Topildiyev, B.R.Topildiyev, M.Y.Usmonova / Rim huquqi / - «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 208 bet.
2. <https://www.pancommunications.com/>
3. Wikipedia. <https://en.wikipedia.org/>
4. <https://www.brainyquote.com/>

³ Mark Tulliy Sitseron. <https://www.brainyquote.com/>